Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,
Samarqand davlat pedagogika instituti
"Pedagogika" kafedrasi professori

Juraxujayev Davronxo'ja Daverxo'ja o'g'li,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Samarqand davlat pedagogika instituti "Geografiya"
kafedrasi assistenti

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI LOYIHA ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BAHOLASH

UO'K: 378.091.33:911
HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_8_2

IBRAGIMOV A.A, JURAXUJAYEV D.D. GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI LOYIHA ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BAHOLASH

Maqolada geografiya ta'limi yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini loyiha ishlari asosida tashkil etish va uning natijalarini mezonli (rubrikali) baholashning metodik jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda loyiha topshiriqlarini ishlab chiqish, ularni bajarish jarayonini tashkil etish hamda o'quv natijalarini aniq mezonlar asosida baholash masalalariga e'tibor qaratilgan. Samarqand davlat pedagogika institutida 2025–2026-o'quv yilida 72 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari loyiha asosida baholashdan so'ng o'zlashtirish ko'rsatkichlarida ijobiy dinamika kuzatilganini ko'rsatdi. Natijalar mazkur yondashuv talabalarning mustaqil ishlash, tahliliy fikrlash, kartografik tahlil va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: geografiya ta'limi, mustaqil ta'lim, loyiha asosida o'qitish, formativ baholash, baholash rubrikalari, kasbiy kompetensiyalar.

ИБРАГИМОВ А.А., ЖУРАХУЖАЕВ Д.Д. ОРГАНИЗАЦИЯ И ОЦЕНИВАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ В ГЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

В статье исследуются методические аспекты организации самостоятельной учебной деятельности студентов направления «Географическое образование» на основе проектных работ и оценивания её результатов посредством критериального (рубрикаторного) оценивания. В исследовании основное внимание уделено разработке проектных заданий, организации процесса их выполнения, а также оцениванию результатов обучения на основе конкретных критериев. Результаты экспериментального исследования, проведённого в Самаркандском государственном педагогическом институте в 2025–2026 учебном году с участием 72 студентов, показали положительную динамику показателей успеваемости после применения проектного оценивания. Результаты свидетельствуют о том, что данный подход способствует развитию самостоятельной работы, аналитического мышления, навыков картографического анализа и исследовательских навыков студентов.

Ключевые слова и понятия: географическое образование, самостоятельное обучение, проектное обучение, формирующее оценивание, оценочные рубрики, профессиональные компетенции.

IBRAGIMOV A.A, JURAKHUJAEV D.D. ORGANIZING AND ASSESSING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING BASED ON PROJECT-BASED LEARNING IN GEOGRAPHY EDUCATION

The article examines the methodological aspects of organizing the independent learning activities of students majoring in geography education through project-based work and assessing its outcomes using criterion-based (rubric-based) assessment. The study focuses on the development of project tasks, the organization of the process of their implementation, and the assessment of learning outcomes based on specific criteria. The results of an experimental study conducted at Samarkand State Pedagogical Institute during the 2025–2026 academic year with the participation of 72 students showed a positive dynamic in learning outcomes following project-based assessment. The results indicate that this approach contributes to the development of students' independent learning, analytical thinking, cartographic analysis, and research skills..

Keywords and concepts: geography education, independent learning, project-based learning, formative assessment, assessment rubrics, professional competences.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimining transformatsiyalashuv jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish va uning natijalarini obyektiv baholash dolzarb pedagogik muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, kredit-modul tizimiga o'tish sharoitida talaba o'quv yuklamasining sezilarli qismi mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilishi, ta'lim jarayonida baholash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Geografiya ta'limi yo'nalishida bu masala nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki talabalarda hududiy tahlil, makoniy modellashtirish va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir [8, 9].

An'anaviy ta'lim metodikasida mustaqil ishlar ko'pincha referat yoki konspekt yozish kabi reproduktiv xarakterga ega bo'lib, bu talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yetarli samaradorlik bermayapti. Bunday yondashuvda baholash jarayoni ko'pincha "rasmiyatchilik"dan iborat bo'lib, talabaning haqiqiy rivojlanish dinamikasini va amaliy ko'nikmalarini aks ettirmaydi. Shu bois, geografiya ta'limida talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, amaliy natijaga asoslangan loyiha usuli va uning mezonli baholash tizimini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi geografiya ta'limi yo'nalishi talabalari misolida mustaqil ta'lim jarayonini loyiha ishlari asosida tashkil etish va uni obyektiv baholashning metodik asoslarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida loyiha yondashuvining talabalar akademik o'zlashtirishiga ta'siri hamda baholash rubrikalarining shaffoflikni ta'minlashdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Samarqand davlat pedagogika institutida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari ushbu metodikaning an'anaviy baholash tizimlaridan afzalliklarini hamda talabalarning professional tayyorgarlik darajasini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotning obyekti – oliy ta'lim tizimida geografiya yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – geografiya ta'limida talabalar mustaqil ta'limini loyiha asosida tashkil etish va mezonli (rubrikali) baholash mexanizmi hamda uning o'zlashtirish samaradorligiga ta'siri.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy oliy ta'limda talabalar mustaqil ta'limini obyektiv baholash masalasi pedagogik tadqiqotlarning markazida turibdi. Ushbu masalani metodik jihatdan asoslash uchun, avvalo, mustaqil ta'limning fundamental nazariy poydevoriga nazar tashlash lozim. Mustaqil ta'limning nazariy asoslari konstruktivistik yondashuv bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda bilimlar subyekt tomonidan faol ravishda shakllantirilishi uqtiriladi. Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi o'rganish jarayonining ijtimoiy muhit va hamkorlik bilan uzviy bog'liqligini asoslab beradi [3, 7].

Mazkur nazariy qarashlarning amaliy in'ikosi sifatida loyiha asosida o'qitish yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvning nazariy ildizlari John Deweyning tajribaviy o'qitish konsepsiyasiga borib taqaladi, unga ko'ra bilimlar real hayotiy faoliyat jarayonida mustahkamlanadi [2]. Zamonaviy tadqiqotchilardan Thomas Markham tomonidan olib borilgan izlanishlar loyiha usulining tanqidiy fikrlash va qaror qabul

1-jadval. Loyiha ishlarini baholash rubrikasi (100 balli tizimda)

Baholash mezonlari	Ball	Tavsifi
Mavzuning dolzarbligi	20	Muammoning qo‘yilishi va tahliliy yondashuv chuqurligi.
Kartografik tahlil	30	Geografik axborot tizimlari va grafik dasturlardan foydalanish, vizuallashuv sifati.
Mustaqil va ilmiy takliflar	30	Muammoning yechimi bo‘yicha ilmiy asoslangan g‘oyalar.
Taqdimot va himoya	20	Natijalarni bayon etish mahorati va savollarga javob berish.

Manba: mualliflar ishlanmasi.

qilish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini isbotlagan [5].

Nazariy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda baholash mexanizmlari hal qiluvchi bo‘g‘in vazifasini o‘taydi. Paul Black va Dylan Wiliam [1] tomonidan asoslangan formativ baholash nazariyasi loyiha ishlarini baholashda faqat natijani emas, balki talabaning rivojlanish dinamikasini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Geografiya ta’limida ushbu yondashuvni qo‘llash talabalarda makoniy tafakkur va hududiy jarayonlarni tizimli hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Global miqyosda loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) va mustaqil ta’limni baholash muammolarining ilmiy xaritasini o‘rganish maqsadida, Lens.org [10] xalqaro ma’lumotlar bazasidagi so‘nggi ilmiy tadqiqotlar VOSviewer dasturi (version 1.6.21) [6] yordamida bibliometrik tahlil qilindi. Qidiruv natijasida olingan eng faol 58 ta kalit so‘z va ularning 132 ta o‘zaro aloqalari asosida global tadqiqotlar tarmog‘i vizuallashtirildi (1-rasm). Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, loyiha asosida o‘qitish metodikasi jahon miqyosida asosan talabalarning ijodkorligini (*creativity*) rivojlantirish, o‘quv natijalarini yaxshilash (*learning outcomes*), 21-asr ko‘nikmalarini (*21st century skills*) shakllantirish hamda tanqidiy fikrlashni (*critical thinking*) baholash kabi yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Bu esa mustaqil ta’limni loyiha asosida baholashning jahon miqyosidagi ilmiy trendlariga to‘la mos kelishini tasdiqlaydi.

Mazkur nazariy qarashlarning ahamiyatli ekaniga qaramay, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, geografiya ta’limida mustaqil ta’lim topshiriqlarini baholashning tabaqalashtirilgan metodik mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya yo‘nalishi 1- va 3-kurs talabalari ishtirokida 2025-2026-o‘quv yili davomida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlil qilinadi.

Metodologiya va tadqiqot materiallari. Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar va aniqlangan metodik ehtiyojlardan kelib chiqib, tadqiqotning amaliy qismi quyidagi differensiallashgan algoritm asosida tashkil etildi. Talabalarning kurs darajasiga mos ravishda loyiha topshiriqlari quyidagicha taqsimlandi:

1-kurs talabalari uchun: “Shamollar va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari” mavzusida loyiha berildi.

3-kurs talabalari uchun: “Aholi sonining o‘sishi sharoitida oziq-ovqat zaxiralarini saqlash masalalari” mavzusi tanlandi.

Tajriba-sinov 1-kursning 2 ta guruhidagi 41 nafar va 3-kursning 1 ta guruhidagi 31 nafar talaba (jami 72 nafar) ishtirokida o‘tkazildi. Tadqiqot nazorat guruhisiz, bir guruhli “oldin–keyin” dizaynida tashkil etildi: dastlabki o‘lchov tajriba-sinov boshida olindi, loyiha usuli barcha guruhlarda sinovdan o‘tkazilgach, yakuniy o‘lchov tajriba oxirida amalga oshirildi. Natijalar 100 balli tizim asosida uch darajaga ajratilib, foiz hisobida solishtirildi (2-jadval).

Talabalar faoliyatini obyektiv baholash uchun quyidagi baholash rubrikasi joriy etildi (1-jadval):

Natija va muhokamalar.

2025-2026-o‘quv yili davomida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, geografiya ta’limida mustaqil ta’lim topshiriqlarini loyiha ishlari asosida tashkil etish va baholash ijobiy pedagogik natija bergan. Tadqiqotning statistik natijalari talabalarning akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy dinamikani namoyon etdi. Quyidagi jadvalda tajribadan oldingi va keyingi natijalar qiyosiy aks ettirilgan:

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori natijalar ulushi 1-kurs talabalarida 12,2% dan 26,8% gacha (5 nafardan 11 nafargacha), 3-kurs talabalarida 16,1% dan 25,8% gacha (5 nafardan 8 nafargacha) oshgan, ya’ni o‘sish mos ravishda 14,6 va 9,7 foiz punktni tashkil etgan. Qoniqarli natijalar ulushi ikkala kursda kamaygan: 1-kursda 41,5% dan

2-jadval. Loyiha asosida o‘qitishning samaradorlik ko‘rsatkichlari (nafar va foiz hisobida)

Kurs	Bosqich	Yuqori (86-100 b)	O‘rta (71-85 b)	Qoniqarli (60-70 b)
1-kurs	Tajribadan oldin	5 (12,2%)	19 (46,3%)	17 (41,5%)
	Tajribadan keyin	11 (26,8%)	23 (56,1%)	7 (17,1%)
3-kurs	Tajribadan oldin	5 (16,1%)	16 (51,6%)	10 (32,3%)
	Tajribadan keyin	8 (25,8%)	19 (61,3%)	4 (12,9%)

Manba: mualliflar tomonidan tajriba-sinov natijalari asosida tuzilgan.
Izoh: b – ball; 1-kurs – 41 nafar, 3-kurs – 31 nafar talaba; qavs ichida – foiz.

17,1% gacha, 3-kursda 32,3% dan 12,9% gacha. O‘zgarishlar 1-kursda biroz yaqqolroq bo‘lgan. Bu farq topshiriqlar mazmuni (1-kurslar uchun tabiiy jarayonlarni modellashtirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar, 3-kurslarda iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning murakkab statistik tahliliga urg‘u) va talabalarning boshlang‘ich tayyorgarligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, biroq tadqiqot dizayni buni tekshirishga imkon bermaydi.

Umumiy tahlillar loyiha asosida baholash yondashuvi qo‘llanilgan davrda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yaxshilanganini ko‘rsatdi. Xususan, 1-kurs talabalari orasida tajriba boshlanishida o‘rtacha darajadagi o‘zlashtirish ustunlik qilgan bo‘lsa, tajriba yakuniga kelib yuqori natijalar ulushi 12,2% dan 26,8% gacha (5 nafardan 11 nafargacha), ya’ni ikki barobardan ziyodga ortgani kuzatildi. Bu holat loyiha topshiriqlarining talabalarda “quruq” nazariy bilimlarni real amaliy faoliyat bilan integratsiya qilishiga xizmat qilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, tabiiy geografiya doirasida bajarilgan loyihalar, masalan, hududiy tabiiy jarayonlarni modellashtirish va mahalliy ekologik muammolarni aniqlash kabi topshiriqlar talabalarning kuzatuvchanlik hamda tizimli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin.

3-kurs talabalarida ham ijobiy dinamika qayd etildi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya doirasida bajarilgan loyiha ishlari talabalarning murakkab ijtimoiy-hududiy jarayonlarni tahlil qilish, katta hajmdagi statistik ma’lumotlar bilan ishlash va global muammolarga mintaqaviy yondashuvni shakllantirishiga zamin yaratgan bo‘lishi mumkin. Tajriba yakunida yuqori natija ko‘rsatgan talabalar soni 5 nafardan 8 nafargacha (25,8%) ortdi, qoniqarli natijalar ulushi esa 32,3% dan 12,9% gacha kamaydi, biroq bu o‘zgarish 1-kursdagiga nisbatan biroz sustroq bo‘ldi.


Tajriba-sinov jarayonida geografiya ta’limi yo‘nalishi talabalarida qayd etilgan ijobiy natijalar VOSviewer dasturi yordamida aniqlangan global ilmiy klasterlar bilan ham o‘zaro mutanosiblikni tashkil etadi (1-rasm).

Xususan, global ilmiy tarmoqdagi yashil klaster tarkibidagi “creativity” (ijodkorlik) va “learning achievement” (o‘zlashtirish samaradorligi) tushunchalari bizning tadqiqotimizda 1-kurs talabalarining tabiiy geografiya loyihalari orqali ijodiy fikrlashining o‘sishida o‘z aksini topishi mumkin. Global tarmoqdagi qizil/binafsha klaster tarkibiga kiruvchi “21st century skills” (21-asr ko‘nikmalari) va “learning outcomes” bog‘liqligi esa tajribamiz doirasida 3-kurs talabalarining ijtimoiy-iqtisodiy geografiya loyihalarini bajarish jarayonida o‘z-o‘zini baholash, statistik tahlil qilish va mustaqil ilmiy takliflar bera olish kompetensiyalarining (yuqori natijalar ulushining 16,1% dan 25,8% gacha o‘sishi) shakllanishi bilan mos keladi. Bu esa geografiya ta’limida mustaqil ta’limni loyiha asosida baholash nafaqat mahalliy miqyosda, balki xalqaro ilmiy paradigmada ham talabalarning kasbiy kompetensiyalarini baholashning samarali vositalaridan biri bo‘la olishini ko‘rsatadi.

Olingan raqamli natijalar nafaqat amaliy ko‘rsatkichlarni, balki loyiha asosida o‘qitishning klassik nazariy qarashlarini ham amalda tasdiqlaydi. Jumladan, John Deweyning tajribaviy o‘qitish nazariyasiga ko‘ra, bilimlar passiv qabul qilinmasdan, balki hayotiy faoliyat jarayonida mustahkam o‘zlashtiriladi [2, 4]. Tadqiqot natijalari ham aynan shu g‘oyani qo‘llab-quvvatlab, loyiha ishlari orqali o‘rganilgan materiallarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yaxshilanganini ko‘rsatdi. Shuningdek, Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi [7] nuqtayi nazaridan qaralganda, loyiha jarayonida yuzaga kelgan jamoaviy hamkorlik muhiti talabalarning bilim olish jarayonini faollashtirgan va ularning intellektual salohiyatini yuzaga chiqargan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan baholash mexanizmining o‘ziga xos jihatlari ham o‘quv jarayonida

1-rasm. Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) mavzusidagi global ilmiy tadqiqotlar kalit so‘zlari tarmog‘i (VOSviewer vizuallashtirishi).



Manba: mualliflar tomonidan Lens.org ma’lumotlar bazasi asosida VOSviewer 1.6.21 dasturida tuzilgan.

muhim natijalarni ko‘rsatdi. Loyiha ishlari uchun maxsus ishlab chiqilgan aniq mezonlar, ya’ni rubrikalar asosida baholash tizimi talabalarda baholashning adolatliligi va shaffofligiga nisbatan ishonchni oshirdi. Talabalarning o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro tahrir qilish jarayonlarida faol ishtirok etishi ularda muhim bo‘lgan reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirdi. Bu natijalar Paul Black va Dylan Wiliam [1] tomonidan asoslab berilgan formativ baholash konsepsiyasiga to‘la mos keladi, ya’ni baholash jarayoni o‘qitishning ajralmas qismi sifatida talabaning rivojlanish trayektoriyasini belgilab beradi.

Loyiha yondashuvi natijasida shakllangan bilimlar bevosita talabalarning mustaqil faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarida ham o‘z aksini topdi. Xususan, mustaqil ishlash jarayonida talabalar:

- muammoni mustaqil ravishda ilmiy asosda aniqlash;
- birlamchi va ikkilamchi ma’lumotlarni mustaqil izlash, saralash va tanlash;
- olingan natijalarni geografik tahlil qilish va umumlashtirish;
- tadqiqot natijalarini xarita va diagrammalar ko‘rinishida asosli tarzda taqdim etish kabi murakkab kompetensiyalarni o‘zlashtirdilar.

Tadqiqotning cheklovlari. Tadqiqot nazorat guruhisiz, kichik tanlanmada (72 nafar), bitta muassasada va bir o‘quv yili davomida o‘tkazilgani sababli, ko‘rsatkichlarning o‘sishini faqat loyiha usuliga bog‘lash mumkin emas: unga o‘quv yili davomidagi umumiy o‘sish va takroriy o‘lchov ta’siri ham ta’sir etgan bo‘lishi mumkin. 1- va 3-kurslar turli mavzu va turli fanlar bo‘yicha ishlagani uchun ularning natijalarini bevosita solishtirish shartli xarakterga ega. Natijalar tavsifiy xarakterga ega bo‘lib, statistik ahamiyatlilik mezonlari qo‘llanmagan. Kelgusida nazorat guruhi ishtirokidagi qiyosiy tajriba va statistik mezonlar asosida tekshirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari loyiha ishlari asosida baholash geografiya ta’limida bir qator pedagogik ustunliklarga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi:

1) mustaqil ta’limning mazmuniy va funksional samaradorligini oshirish;

2) talabalarning amaliy-tadqiqotchilik va kartografik-tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

3) baholash jarayonining obyektivligi, shaffofligi va mezonli aniqligini ta'minlash;

4) talabalarning o'quv-biluv jarayoniga nisbatan ichki motivatsiyasini va faol jalb etilishini kuchaytirish.

Xulosalar.

1. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, geografiya ta'limida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini loyiha ishlari asosida baholash zamonaviy kredit-modul tizimi talablariga to'liq javob beradigan samarali pedagogik yondashuv bo'la oladi. Bir o'quv yili davomida 1- va 3-kurs talabalari ishtirokida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni tasdiqladiki, loyiha asosida baholash talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki kasbiy kompetensiyalarini ham yaxshilashga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatdi.

2. Tadqiqot natijalariga ko'ra, loyiha ishlari asosida o'tkazilgan tajriba-sinovdan keyin yuqori natijalar ulushi 1-kursda 12,2% dan 26,8% gacha, 3-kursda 16,1% dan 25,8% gacha oshdi, qoniqarli natijalar ulushi esa mos ravishda 41,5% dan 17,1% gacha va 32,3% dan 12,9% gacha kamaydi. Tabiiy geografiya hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari doirasida bajarilgan loyiha topshiriqlari talabalarda tahliliy fikrlash, hududiy muammolarni makoniy modellashtirish va mustaqil yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan bo'lishi mumkin. O'zgarishlar 1-kursda biroz yaqqolroq bo'ldi; bu farq sabablarini aniqlash uchun nazorat guruhi ishtirokidagi keyingi tadqiqotlar zarur.

3. Baholash metodikasining o'zgarishi, o'z navbatida, ta'lim muhitining shaffoflashishiga va talaba motivatsiyasining oshishiga olib keldi. Rubrikalar asosida amalga oshirilgan formativ baholash jarayoni subyektivizmni kamaytirib, obyektivlikni oshirishga xizmat qildi. Ayniqsa, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash elementlarining joriy etilishi talabalarda reflektiv fikrlashni shakllantirdi va ularni o'quv jarayonining passiv kuzatuvchisidan faol ishtirokchisiga aylantirdi.

4. Loyiha asosida baholash geografiya ta'limida mustaqil ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiquvchi muhim pedagogik vositadir. Tadqiqot yakunlari shuni ko'rsatadiki, kelgusida ushbu yondashuvni raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt elementlari asosidagi amaliy loyihalar bilan integratsiya qilish geograf kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirishning strategik yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning //Assessment in Education: principles, policy & practice. – 1998. – T. 5. – №. 1. – C. 7-74.

2. Dewey J. Experience and education. – Simon and Schuster, 2007.

3. Ибрагимов А.А. Дорожная карта повышения квалификации как технология проектирования индивидуальной образовательной траектории педагога // Современный менеджмент: проблемы, модели, перспективы. – 2018. – С. 32-33.

4. Журахужаев Д. Роль проблемного обучения в формировании современных навыков у учащихся // Предпринимательство и педагогика. – 2023. – Т. 5. – №. 4. – С. 127-134.

5. Markham T., Larmer J., Ravitz J. Project based learning handbook: A guide to standards-focused project based learning for middle and high school teachers //(No Title). – 2003.

6. Van Eck N.J., Waltman L. Software survey: VOSviewer, a computer program for bibliometric mapping //scientometrics. – 2010. – Т. 84. – №. 2. – С. 523-538.

7. Vygotsky L.S. et al. The development of higher psychological processes. – 1978.

8. Хамроева Ф.А., Давронова М.А., Намозов Ж.А. Мустақил таълимни ташкил этишда интерактив таълим технологиялардан фойдаланиш // Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1199-1205.

9. Ярашев К.С., Джурахужаев Д.Д. Практическая значимость применения проектного метода в преподавании географии // Экономика и социум. – 2025. – №. 8 (135). – С. 845-848.

10. The Lens: free & open scholarly and patent search. – URL: https://www.lens.org